

## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2024- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 22 383,5 mlrd so‘mni (AQSh dollari ekvivalentidagi hajmi 1,77 mlrd AQSh dollarini) yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 104,8 %ni tashkil qildi.


### Shahar va tumanlar kesimida kiritilgan investitsiyalar hajmi

(2024- yil yanvar-dekabr)


Shahar va tumanlar	Umumiy hajmi		Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m	o‘shir sur‘ati, %da	ming so‘m	o‘shir sur‘ati, %da
<b>Viloyat jami</b>	<b>22 383,5</b>	<b>104,8</b>	<b>5 455,3</b>	<b>102,7</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	5 219,2	98,0	16 054,1	95,9
Qo‘qon	2 093,2	123,0	6 724,1	120,7
Quvasoy	1 105,8	176,2	10 820,0	172,4
Marg‘ilon	715,7	84,0	2 799,0	82,6
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	815,0	86,0	3 532,7	84,2
Qo‘shtepa	796,9	62,1	3 782,2	60,5
Bag‘dod	636,9	134,0	2 703,3	131,1
Buvayda	531,6	98,4	2 126,4	96,2
Beshariq	442,8	64,3	1 807,3	63,1
Quva	431,3	75,8	1 550,3	74,5
Uchko‘prik	2 256,3	103,5	9 239,6	101,1
Rishton	423,8	52,2	1 934,3	51,1
So‘x	403,8	2,3 m.	4 750,6	2,2 m.
Toshloq	933,0	71,1	4 246,7	69,7
O‘zbekiston	2 337,4	2,7 m.	9 804,5	2,7 m.
Farg‘ona	1 334,9	116,0	5 967,4	113,8
Dang‘ara	961,1	122,9	5 366,3	120,0
Furqat	441,0	148,6	3 434,6	145,5
Yozyovon	503,8	65,5	4 163,6	64,1

2024- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi, ya‘ni 22,3 %ni viloyatning Farg‘ona shahrida, O‘zbekiston tumanida 10,4 % Uchko‘prik tumanida 10,1 % o‘zlashtirildi.

## Hududlar kesimida investitsiyalar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr mlrd so‘m)




## 2024- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari, % da




Qator shahar tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, jumladan O'zbekiston tumanida – 2,7 m. (2 337,4 mlrd so'm), So'x tumanida – 2,3 m. (403,8 mlrd so'm) va Quvasoy shahrida – 176,2 % (1 105,8 mlrd so'm).

### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



2024- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar O'zbekiston tumanida – 9 804,5 ming so'm (yoki 2023- yilga nisbatan 2,7 m.), So'x tumanida – 4 750,6 ming so'm (2,2 m.), Quvasoy shahrida – 10 820,0 ming so'm (yoki 1,7 m.) qayd etildi.


## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

(2024- yil yanvar -dekabr)


	mlrd so'm	o'sish sur'ati, %da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>22 383,5</b>	<b>104,8</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>2 260,7</b>	<b>71,8</b>	<b>10,1</b>
Respublika byudjeti	1 465,6	62,0	6,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	11,3	7,5	0,1
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	498,9	2,4 m.	2,2
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	284,9	66,3	1,3
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>20 122,8</b>	<b>110,5</b>	<b>89,9</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	4 053,0	103,1	18,1
aholi mablag'lari	2 612,6	100,0	11,7
to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	12 425,4	116,8	55,5
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 031,8	101,1	4,6

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari


(2024-yil yanvar-dekabr umumiy hajmga nisbatan, % da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobida 2023- yilga nisbatan 71,8 % yoki 2 260,7 mlrd so‘m (jami investitsiyalar hajmining 10,1 % ulushiga teng) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2023- yilga nisbatan 110,5 % yoki 20 122,8 mlrd so‘m (jami investitsiyalar hajmining 89,9 % ulushiga teng) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 2 260,7 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 71,8 %ni tashkil etib (umumiy hajmdagi ulushi 10,1 %), shundan byudjet mablag‘lari 1 465,6 mlrd so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 62,0 %ni tashkil etib, (umumiy hajmdagi ulushi 6,5 %), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 498,9 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 m. tashkil etdi (umumiy hajmdagi ulushi 2,2 %), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 284,9 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 66,3 %ni tashkil etganini ta‘kidlash lozim (umumiy hajmdagi ulushi 1,3 %), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 11,3 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 %ni tashkil etdi (umumiy hajmdagi ulushi 0,1 %).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 20 122,8 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 89,9 %) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng ko‘p ulush to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, 12 425,4 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ga oshgan (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 55,5 %), korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 4 053,0 mlrd so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 18,1 %) tashkil etdi, 2 612,6 mlrd so‘m aholi mablag‘lari hisobiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 11,7 %) tashkil etdi. Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 1 031,8 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 %ni (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 4,6 %) tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo'yicha tarkibi (2024-yil yanvar-dekabr)**

	<i>Jami investitsiyalar mlrd so'm</i>	<i>Shundan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (mlrd so'm)</i>				
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Tiklanish va Taraqqiyot fondi va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi</i>	<i>Korxonalar, mahalliy Byudjet va aholi mablag'i</i>	<i>Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari</i>	<i>Chet el investitsiyalari va kreditlari</i>
<b>Viloyat jami</b>	<b>22 383,5</b>	<b>1 465,6</b>	<b>510,2</b>	<b>6 665,7</b>	<b>1 031,8</b>	<b>12 710,2</b>
Farg'ona sh.	5 219,2	537,5	18,6	1 701,3	265,6	2 696,2
Qo'qon sh.	2 093,2	137,1	77,5	579,2	189,5	1 109,9
Quvasoy sh.	1 105,8	8,7	-	181,8	15,2	900,1
Marg'ilon sh.	715,7	52,9	1,7	212,9	22,4	425,8
Oltiariq	815,0	50,9	3,1	368,3	46,5	346,2
Qo'shtepa	796,9	37,7	6,0	660,0	14,2	79,0
Bag'dod	636,9	102,1	5,6	248,7	6,0	274,5
Buvayda	531,6	64,7	3,4	194,3	8,9	260,3
Beshariq	442,8	59,9	3,3	249,1	3,3	127,2
Quva	431,3	28,1	0,7	371,0	22,9	8,6
Uchko'prik	2 256,3	37,8	6,1	643,8	377,9	1 190,7
Rishton	423,8	22,0	113,7	102,3	3,6	182,2
So'x	403,8	47,9	109,4	108,6	-	137,9
Toshloq	933,0	41,6	4,5	246,8	4,4	635,7
O'zbekiston	2 337,4	36,4	7,9	148,7	12,6	2 131,8
Farg'ona	1 334,9	105,2	2,6	217,3	19,4	990,4
Dang'ara	961,1	9,3	0,7	196,2	7,4	747,5
Furqat	441,0	27,1	1,2	118,2	2,4	292,1
Yozyovon	503,8	58,7	144,2	117,2	9,6	174,1

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

(2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Jami mlrd so‘m	Shu jumladan, %		
		Qurilish montaj ishlari	Mashinalar, asbob-uskunalar, inventarlar	Boshqa harajatlar
<b>Viloyat jami:</b>	<b>22 383,5</b>	<b>52,6</b>	<b>34,9</b>	<b>12,5</b>
Farg‘ona sh.	5 219,2	52,4	38,7	8,9
Qo‘qon sh.	2 093,2	51,3	42,1	6,6
Quvasoy sh.	1 105,8	47,8	42,8	9,4
Marg‘ilon sh.	715,7	62,5	33,5	4,0
Oltiariq	815,0	57,7	33,3	9,0
Qo‘shtepa	796,9	87,5	6,9	5,6
Bag‘dod	636,9	69,1	20,5	10,4
Buvayda	531,6	56,8	35,1	8,1
Beshariq	442,8	76,4	14,9	8,7
Quva	431,3	80,8	9,2	10,0
Uchko‘prik	2 256,3	41,3	51,7	7,0
Rishton	423,8	73,1	21,9	5,0
So‘x	403,8	63,7	30,5	5,8
Toshloq	933,0	65,4	21,9	12,7
O‘zbekiston	2 337,4	19,9	27,1	53,0
Farg‘ona t.	1 334,9	47,3	48,0	4,7
Dang‘ara	961,1	51,7	42,8	5,5
Furqat	441,0	69,9	20,0	10,1
Yozyovon	503,8	77,8	16,2	6,0

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi**  
(2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Jami mlrd so‘m	Shu jumladan, %		
		Yangi qurilish	Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish	Boshqa harajatlar
<b>Viloyat jami:</b>	<b>22 383,5</b>	<b>63,7</b>	<b>25,2</b>	<b>11,1</b>
Farg‘ona sh.	5 219,2	62,9	20,2	16,9
Qo‘qon sh.	2 093,2	57,5	27,9	14,6
Quvasoy sh.	1 105,8	52,9	32,2	14,9
Marg‘ilon sh.	715,7	48,7	39,7	11,6
Oltiariq	815,0	51,2	11,7	37,1
Qo‘shtepa	796,9	32,7	59,2	8,1
Bag‘dod	636,9	63,7	31,5	4,8
Buvayda	531,6	63,3	31,9	4,8
Beshariq	442,8	79,0	15,0	6,0
Quva	431,3	73,7	13,7	12,6
Uchko‘prik	2 256,3	65,9	26,9	7,2
Rishton	423,8	70,7	21,3	8,0
So‘x	403,8	64,6	28,6	6,8
Toshloq	933,0	66,5	26,8	6,7
O‘zbekiston	2 337,4	95,0	2,8	2,2
Farg‘ona t.	1 334,9	66,0	26,5	7,5
Dang‘ara	961,1	43,7	53,3	3,0
Furqat	441,0	59,5	35,5	5,0
Yozyovon	503,8	60,0	31,7	8,3


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	2024- yil yanvar-dekabr			
	Jami investitsiya mlrd so'm	Umumiy hajmga nisbatan %da	shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
			mlrd so'm	Umumiy hajmga nisbatan %da
<b>Jami :</b>	<b>22 383,5</b>	<b>100,0</b>	<b>12 710,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 263,4	5,6	520,5	4,1
tog'-kon sanoati	352,4	1,6	333,6	2,6
qayta ishlash sanoati	8 865,4	39,6	6 870,8	54,1
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2 189,4	9,8	1 968,2	15,5
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	577,6	2,6	-	-
qurilish	1 317,7	5,9	500,5	3,9
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	927,8	4,1	569,2	4,5
tashish va saqlash	847,2	3,8	234,2	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	304,7	1,4	275,0	2,2
axborot va aloqa	187,2	0,8	168,1	1,3
moliyaviy va sug'urta faoliyati	62,8	0,3	-	-
professional, ilmiy va texnik faoliyat	42,1	0,2	-	-
ta'lim	478,9	2,1	3,3	0,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	503,9	2,3	120,5	0,9
boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar - joy binolari qurilishiga investitsiyalar	3 704,0	16,5	922,5	7,3
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	120,7	0,5	-	-
boshqa faoliyat turlari	638,3	2,9	223,8	1,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 1 263,4 mlrd so'mlik (jami investitsiyalar hajmida 5,6 %), tog'-kon sanoatida – 352,4 mlrd so'mlik (1,6 %), qayta ishlash sanoatida – 8 865,4 mlrd so'mlik (39,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 2 189,4 mlrd so'mlik (9,8 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilinishida 577,6 mlrd so'mlik (2,6 %), qurilish uchun – 1 317,7 mlrd so'mlik (5,9 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash – 927,8 mlrd so'mlik (4,1 %), tashish va saqlash uchun – 847,2 mlrd

soʻmlik (3,8 %), yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarga 304,7 mlrd soʻmlik (1,4 %), axborot va aloqa – 187,2 mlrd soʻmlik (0,8 %), moliyaviy va sugʻurta faoliyatida 62,8 mlrd soʻmlik (0,3 %), taʼlim boʻyicha – 478,9 mlrd soʻmlik (2,1 %), sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida 503,9 mlrd soʻmlik (2,3%), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari turar-joy binolari qurilishiga – 3 704,0 mlrd soʻmlik (16,5 %), sanʼat, koʻngil ochish va dam olish 120,7 mlrd soʻmlik (0,5 %) investitsiyalar oʻzlashtirildi

### Kiritilgan investitsiyalarda katta ulushga ega boʻlgan sohalar (yanvar-dekabr holatiga, %da)



### Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2024-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 12 710,2 mlrd soʻm boʻlib, 1 004,5 mln AQSh dollari yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,8 % oʻsdi. Jami xorijiy investitsiyalar 9 145,8 mlrd soʻm boʻlib 722,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi, shundan 9 145,8 mlrd soʻm toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar boʻlib, 722,8 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Jami xorijiy kreditlar 3 564,4 mlrd soʻm boʻlib, 281,7 mln AQSh dollarni, shundan 284,9 mlrd soʻm Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar boʻlib 22,5 mln AQSh dollarini, kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 3 279,5 mlrd soʻm boʻlib, 259,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi


(2024- yil yanvar-dekabr)

	Mlrd so‘m	shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqalar
<b>Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar</b>	<b>12 710,2</b>	<b>284,9</b>	<b>12 425,3</b>
shu jumladan:			
davlat	286,1	226,7	59,4
nodavlat	12 424,1	58,2	12 365,9

Hisobot davrida Farg‘ona viloyati bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar 12 710,2 mlrd so‘mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi nodavlat sektoriga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar 12 424,1 mlrd so‘m bo‘lib, bu hajm jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 97,7 %ni tashkil qildi.

### Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi


(yanvar-dekabr, umumiy hajmga nisbatan, %da)



Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib – 6 870,8 mlrd so'mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi – 54,1 %ni, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash esa 569,2 mlrd so'mni tashkil etib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 4,5 %ni, qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi – 520,6 mlrd so'mlik (4,1 %), tashish va saqlash uchun –234,2 mlrd so'mlik (1,8 %), axborot va aloqa – 168,1 mlrd so'mlik (1,3 %) va turar-oylar qurilishiga yo'nalishida 922,5 mlrd so'mlik (7,3 %) tashkil etdi.

## Qurilish faoliyati

2024- yil yanvar-dekabr oylarida 15 794,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari umumiy hajmini ko'radigan bo'lsak, Farg'ona shahrida 2 653,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi, jami qurilish ishlari hajmining 16,7 % (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,2 %)ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida 1 289,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 8,2 % (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 %)ni, Qo'qon shahrida 877,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi, jami qurilishdagi ulushi 5,6 %, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,5 %)ni, Toshloq tumanida 645,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi jami qurilishdagi ulushi 4,1 %, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 91,5 %), Qo'shtepa tumanida 609,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi jami qurilishdagi ulushi 3,9 %, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 %), O'zbekiston tumanida 572,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,6 %, o'sish sur'ati 119,3 %), Farg'ona tumanida 517,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari


bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 3,3 %, o‘shish sur‘ati 120,6 %), Dang‘ara tumanida 438,1 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,8 %, o‘shish sur‘ati 101,1 %), Quva tumanida 431,3 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,7 %, o‘shish sur‘ati 109,3%), Oltiariq tumanida 416,5 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,6 %, o‘shish sur‘ati 111,7 %), Buvayda tumanida 349,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,2 %, o‘shish sur‘ati 106,1 %), Quvasoy shahrida 340,8 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,2 %, o‘shish sur‘ati 101,1 %), Bag‘dod tumanida 333,3 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,1 %, o‘shish sur‘ati 105,5 %), Uchko‘prik tumanida 327,6 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,1 %, o‘shish sur‘ati 109,5 %), Beshariq tumanida 317,0 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 2,0 %, o‘shish sur‘ati 173,5 %), Yozyovon tumanida 231,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,5 %, o‘shish sur‘ati 100,3 %), Rishton tumanida 205,8 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,3 %, o‘shish sur‘ati 100,2 %), Furqat tumanida 169,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 1,1 %, o‘shish sur‘ati 103,7 %), So‘x tumanida 144,2 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilishdagi ulushi 0,9 %, o‘shish sur‘ati 100,4 %)

### Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi

	Yanvar–dekabr	
	2023- yil	2024- yil
<b>Qurilish ishlari, mlrd so‘m</b>	<b>14 014,5*</b>	<b>15 794,6*</b>
shu jumladan:		
davlat	16,9	368,5
nodavlat	13 997,6	15 426,1

### Qurilish ishlarini mulkchilik shakllari bo‘yicha ko‘rinishi

(yanvar-dekabr, umumiy hajmga nisbatan, %da)



\* Norasmiy va yashirin iqtisodiyot statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 15 426,1 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,7 %ni tashkil qildi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 368,5 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,3 %ni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 77,6 %ni yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga 22,4 %ni esa kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.

### Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

	2023- yil yanvar- dekabr (mlrd so‘m)	2024- yil yanvar- dekabr (mlrd so‘m)	O‘tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>14 014,5*</b>	<b>15 794,6*</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
Farg‘ona sh.	2 561,2	2 653,9	100,2	16,7
Qo‘qon sh.	679,2	877,4	124,5	5,6
Quvasoy sh.	325,1	340,8	101,1	2,2
Marg‘ilon sh.	1 291,9	1 289,6	96,5	8,2
Oltiariq	358,6	416,5	111,7	2,6
Qo‘shtepa	546,3	609,2	107,5	3,9
Bag‘dod	303,1	333,3	105,5	2,1
Buvayda	317,6	349,4	106,1	2,2
Beshariq	174,8	317,0	173,5	2,0
Quva	378,5	431,3	109,3	2,7
Uchko‘prik	289,1	327,6	109,5	2,1
Rishton	197,7	205,8	100,2	1,3
So‘x	138,6	144,2	100,4	0,9
Toshloq	679,4	645,0	91,5	4,1
O‘zbekiston	464,6	572,9	119,3	3,6
Farg‘ona t.	413,6	517,0	120,6	3,3
Dang‘ara	419,0	438,1	101,1	2,8
Furqat	156,9	169,4	103,7	1,1
Yozyovon	221,9	231,2	100,3	1,5

\* Norasmiy va yashirin iqtisodiyot statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda

## Farg‘ona viloyatida 2024- yil yanvar-dekabr oylarida sektorlar kesimida qurilish ishlari hajmlari ko‘rsatkichlari \*



### Yirik tashkilotlar



**Hajmi:**

2 696,4 mlrd so‘m



**O‘shish sur‘ati:**

99,9 %



### Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar



**Hajmi:**

7 596,2 mlrd so‘m



**O‘shish sur‘ati:**

112,4 %



### Norasmiy sektor



**Hajmi:**

5 502,0 mlrd so‘m



**O‘shish sur‘ati:**

107,9 %

Binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 16,4 % yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 punktga kamaydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 37,8 % (3,9 % ga ko‘paydi) va norasmiy sektorning ulushi 45,8 % (0,5 %ga kamaydi)ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurilishi bo‘yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 19,4 %ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 %ga ko‘paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 79,3 %ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi va 19,5 %ni tashkil etdi. Qolgan 80,5 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib 2023- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko‘paydi.

\* Norasmiy va yashirin iqtisodiyot statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda